
BARChAMIZ BEL BOG'LAYLIK!

Davlatimiz jahonda yirik paxta xom ashyosi etishtiruvchi mamlakatlardan sanaladi. Dunyoda paxta etishtirish bo'yicha 6-o'rin, tolasini eksport qilishda esa 5-o'rinni egallab kelmoqda.

Bu ko'rsatkichlarga erishish osonlik bilan kechmadi.

Mustaqillikning ilk yillarida paxta tolasini qayta ishlash hajmi 7 foizdan 40 foizga etdi. Bugungi kunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari 50 dan ortiq mamlakatga eksport qilinmoqda. So'nggi yillarda Braziliya, Chili, Xorvatiya, Nigeriya va boshqa mamlakatlar bozorida ham mahsulotlarimiz o'z o'rnini topmoqda. Bu barchamizning yutug'imiz.

Shunday ekan, ana shu yutuqlarimizni ko'zda tutgan, davlatimiz sanoatining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan viloyatimiz faollarining dalalarimizdagi paxta hosilini oxirgi misqoligacha yig'ib-terib olish maqsadida "Zarbdor 30 kunlik"ni uyushqoqlik va yuqori ko'tarinkilik bilan o'tkazish bo'yicha Farg'ona viloyati ahliga murojaati har bir fuqaro ko'ngliga etib borishi, shubhasiz.

Vatan kelajagiga befarq bo'lmagan har bir inson murojaatga "labbay" deb javob berib, dalaga otlanadi. "Oq oltin"ni nest-nobut qilmay, yog'in-sochinli kunlarga qoldirmay yig'ishtirib olishda ishtirok etadi.

Murojaatda ta'kidlanganidek, paxta barchamizning rizqimiz. Nafaqat fermer xo'jaliklari a'zolari, balki viloyatimiz engil sanoat tarmoqlarida mehnat qilayotgan 360 mingdan ortiq fuqarolarimizning nasibasi. Oilasi to'kinligining ramziy ifodasidir.

Prezidentimizning 2016 yil 21 dekabrda "2017-2019 yilda to'qimachilik va trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash natijasida har bir hududning o'zida paxta tolasini to'liq qayta ishlash, maxsulot ishlab chiqarishni 2,7 martaga ko'paytirish, 2,2 mlrd.dollar miqdorida investitsiya mablag'lari jalb etish, 27 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi, 120 ta korxonalar barpo qilish ko'zda tutilgan bo'lib, hayotimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Paxta terimining uyushqoqlik bilan o'tkazilishi, fermer xo'jaliklarida belgilangan rejaning to'liq ado etilishi esa shunday ezgu ishlarning debochasidir.

Bugungi siz va bizning mehnat maydonidagi jasoratimiz, fidokorlik bilan ulug' yumushga o'z hissamizni qo'shishimiz ko'zda tutilgan maqsadlarga etishda ko'mak bo'ladi.

Barchamiz el yumushiga bel bog'laylik!

Z. TOJIBOEV,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti.

2017-10-26 15:29:12